

SMTI direktori AQSh Kongressida "Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li" kitobining taqdimotida ishtirok etdi



Joriy yilning 16-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining Amerika Qo'shma Shtatlariga tashrifi doirasida AQSH Kongressining eng yirik va muhim ofis majmualaridan biri bo'lgan "Reyburn House Office Building" binosida "Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li" kitobining taqdimoti tashkil etildi.

Tadbirida Kongress, Oq uy, Davlat departamenti, AQSHning asosiy vazirlik va idoralari, yetakchi kompaniya va biznes uyushmalari vakillari, shuningdek, ekspertlar va jurnalistlardan iborat 70 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi.

Tadbirning rasmiy qismini O'zbekistonning AQShdagi elchisi Furqat Sidiqov va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev ochib berdi.

Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori Eldor Aripov ham so'zga chiqdi.



SMTI direktori tanigʻli siyosatshunos, senator, Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov muallifligidagi kitob mazmuni haqida batafsil maʼlumot berdi. Uning taʼkidlashicha, asarda Shavkat Mirziyoyev tomonidan soʻnggi sakkiz yil ichida boshlangan va amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlari va yoʻnalishlari qayd etilgan, shuningdek, ularning mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishiga taʼsiri ochib berilgan.

"Biz alohida voqeylik - Oʻzbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi chuqur oʻzgarishlarni aks ettiruvchi kitobni taqdim etish uchun yigʻildik. Bu shunchaki islohotlar yoki qisqa vaqt ichida keng koʻlamli oʻzgarishlarni boshlash va amalga oshirishga muvaffaq boʻlgan Rahbar haqidagi asar emas. Ushbu kitob Oʻzbekiston kirib kelayotgan yangi davrning guvohidir," - dedi SMTI direktori.

Ekspert kitobni nafaqat islohotlar solnomasi, balki bugungi kunda Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlik drayveri vazifasini bajarayotgan mustahkam, jadal rivojlanayotgan va oʻziga ishongan mamlakat sifatida Yangi Oʻzbekistonning qaror topishi ramzi sifatida taʼrifladi.

Eldor Aripov nashrda keltirilgan fikr-mulohazalar milliy islohotlar xalqaro birdamlikni qanday mustahkamlashi va barcha uchun yorqin kelajak qurishga qanday hissa qoʻshishi mumkinligi haqidagi keng qamrovli muhokamalarga turtki boʻlishiga umid bildirdi.

Taqdimot doirasida tadbir ishtirokchilari oʻrtasida mazmunli muhokamalar oʻtkazilib ularda Amerika davlat tuzilmalari, ishbilarmonlar va ekspertlar vakillari Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati hamda ikki tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish istiqbollari haqida oʻz fikrlarini bildirdilar.

Umuman olganda, AQSH Kongressi binosida oʻtkazilgan "Yangi Oʻzbekiston: Shavkat Mirziyoyev yoʻli" kitobining taqdimoti Oʻzbekiston Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlarni muhokama qilish uchun muhim maydon boʻlib xizmat qildi hamda siyosiy va ekspert doiralarida keng qiziqish uygʻotdi. Mazkur tadbir Prezident rahbarligida mamlakatni modernizatsiya qilish va ochiqlik siyosatini yuritish yoʻlida

erishilgan yutuqlarning e'tirofi sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, bu O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi strategik hamkorlik yanada chuqurlashayotganining namunasi bo'ldi.